

## TEMPORALLIK ISHTIROK ETGAN GAPLARNING TAHLILIDA FOYDALANILGAN LISONIY METODLAR

**Ziyadullayev Abubakir Ibodulla o'g'li**

Samarqand davlat chet tillar instituti 1-bosqich doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada gap qurilmasidagi sintaktik birliklarni sintaksemalarga ajratish, aniqlangan sintaksemalarni ma'lum sintaktik aloqalar bazasida boshqa qanday sintaksemalar bilan bog'lanish imkoniyatlari aniqlash, ularning differensial sintaktik belgilari asosida har bir komponentning gap tarkibidagi sintaktik o'rnini ko'rsatish, temporallikni hosil qiluvchi Grammatik vositalarning gapdagi o'rnini tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** lingvistik kategoriya, komponentlar, tagmemalar, distributsiya, transformatsiya, sintaksemalar, substitutsiya, derivatsiya, Distributiv metod differensial sintaktik-semantik belgilar, lisoniy metod, eksplikatsiya, interrogatsiya

Nominalizatsiya, Deyksis xususiyatiga, Shaxs deyksisi, Lokal deyksisi temporal elementli, mikroma, temporallik, temporal sintaktik birlik substansiallik, protsessuallik va kvalifikativlik paradigmatic yo'nalishida

### TEMPORALITY IN ANALYSIS OF THE PARTICIPANTS LANGUAGE METHODS USED

*Samarkand State Institute of Foreign Languages,  
1st year doctoral student Ziyadullayev Abubakir*

**Annotation.** This article divides the syntactic units of a speech device into syntaxes, identifies the possibilities of connecting the identified syntaxes with other syntaxes on the basis of certain syntactic relations, shows the syntactic position of each component in the sentence structure based on their differential syntactic features. the role of the sentence is analyzed.

**Keywords.** linguistic category, components, tags, distribution, transformation, syntax, substitution, derivation, Distributive method, differential syntactic-semantic signs, linguistic method, explication, interrogation

Nominalization, Deixis property, Person deix, Local deix temporal element, microma, temporality, temporal syntactic unit in the paradigmatic direction of substantiality, procedurality and qualification.

*Ma'lumki, tilning har qanday sathini tadqiq qilishda aniq lingvistik metodlardan to'g'ri foydalanish va ularni qiyosiy-funksional tadqiqodlarda qo'llash har qanday tadqiqotchidan mahorat talab qiladi, qolaversa lisoniy metodlar yordamida aniq nazariy va amaliy natijalarga erishish hozirgi zamon talablaridan biridir. Gapning sintaktik tahlil qilish jarayonlariga e'tibor qaratisa, umuman tilshunoslikda sintaktik mazmun muammolari so'z shakllari, leksik ma'nolardankelib chiqqanligi bois tilshunoslarning fikrlari bir-biriga zid holatlar uchraydi. Ayrim tadqiqodchilar leksik ma'noni grammatikaning asosi sifatida tan olishsa, boshqalari esa buni inkor etishsa, uchinchi guruh tilshunoslar leksik ma'noni lingvistik kategoriya sifatida tan olishmaydi [1, 1968; 104; 105].*

Yevropa va Amerika tilshunoslari gapning sintaktik tahliliga turlicha yondoshadilar. Ma'lum bir sintaktik ko'rinishini tahlil qilishda komponentlarga ajratib tahlil qilishning o'zi bir necha ko'rinishlarga ega. Masalan, A.A.Xill tagmemalarni (tagmema bu gapning minimal funksional segmentlarga ajratish) aniqlash ya'ni gap bo'laklarini o'z ichiga qamrab olishidir [2, 1998, 181], Z.S.Xerris esa zanjirli tahlil, ya'ni gap tarkibini elementar bo'laklarga ajratish va distributsiya bazasida adyunklarga ajratish usuli bilan [5, 1964, 217], R.E.Longark ham zanjirli tahlilni bevosita ishtirokchilarga ajratib tahlil qilish orqali amalga oshiradi. Gapning sintaktik tahlili shu usulda borib, bevosita ishtirokchilarga ajratish tahlil qilish usuli bilan chegaralangan. Ushbu tahlil usullari gap qurilmasida ishtirok etgan sintaktik birliklarning morfologik xususiyatlari bilan cheklanib, sintez jarayoniga o'ta olmaydi. Tilshunoslikda transformatsiya grammatikasi paydo bo'lgach, segmentlarga ajratib tahlil qilish va disdistributsiya metodidan ham foydalanib tahlil qilish paydo bo'ldi va taraqqiy etdi. Bu usullarning asoschilari Amerikada N.Chomsky, 1997; R.E.Lees, 1960; P.Roberts, 1964; E.Bach, 1964; A.Hathway, 1967; P.S.Rosenbaum, 1967 va boshqalar. Qayd qilingan lisoniy tahlil metodlari rivojlantirildi va aniq tahlil usullariga aylandi. Bugungi kunda kichik sintaksis doirasida gap qurilmasini tahlil qilishda distributiv tahlil, bevosita ishtirokchilarga ajratish metodi, transformatsiyaning bir nechta turlari, substitutsiya, derivatsiya, komponentlarga va sintaksemlarga ajratish metodlari mavjud bo'lib, ulardan komponentlarga va sintaksemlarga

ajratib tahlil qilish metodiga ko'proq to'xtalamiz. Ammo shuni ta'kidlash joizki, ushbu metoddan keng foydalandik. Tadqiqot jarayonida lingvistik tadqiqot metodlardan to'g'ri va umumli foydalanilganda, til qatlamlarini bir-biridan farqlash, ularning o'zaro munosabatlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Masalan: distributiv metodidan foydalanishda, tilshunoslar uning uch hodisasiga e'tiborni qaratadi: a) qo'shimcha yoki to'ldiruvchi distributsiya; b) qiyosiy qarama-qarshilik (kontrast) distributsiyasi [3, 2007; 106]; c) erkin almashtirish distributsiyasi [4, 1983]. Distributiv metod ko'proq tilning morfologik (qo'shimcha, kontrast) sathda qo'llanilgan bo'lsa erkin almashtirish distributsiyasi esa so'z birikmalar tarkibida foydalanilgan, xolos. Ammo, ushbu metod sintaktik sathda foydalanilganda, tadqiqot uchun tanlangan sintaktik birliklarning sintaktik aloqalar bazasida gapdagi o'rnini aniqlashda foydalanib, ularni komponentlarga va sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda keng foydalanish mumkin, hatto ularni qiyosiy-funksional tahlil qilishga ham keng imkoniyat tug'iladi.

Bevosita ishtirokchilarga ajratish metodidan foydalanilsa, bu metod asosan sintaktik sathda gap qurilmasini avvalo eng katta ishtirokchilarga ajratib, ularni yana kichik ishtirokchilarga ajratib, o'sha ishtirokchilarning morfologik ifodasini modellashtirish usuli bilan tahlil qilinadi. Bu esa gapning tashqi qurilmasini morfologik sathda sintez o'tkazadi, xolos. Ushbu lisoniy metod gap tahlilini sintaktik sathdan boshlab, tilning morfologik sathiga qaytadi. Bu metoddan foydalanish ham gap tarkibida payt holining differensial sintaktik-semantik belgilarini, uning variantlarini hamda deyktik holatlarini sintaktik sathda semantikasini aniqlab bo'lmaydi. Transformatsiya metodi gapning ma'no va formal strukturasi o'zaro munosabatini aniqlash zaminida sodir bo'ladi. Natijada, tilshunoslikda har gapning (ma'no birligini ifodalovchi) va tashqi (formal) struktura paydo bo'ladi. [6, 1968; 107; 108]. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, “transformatsiya grammatikalari” yaratilgach, transformatsiya tahlil metodi rivojlana boshlaydi. Ammo, o'sha davrda til sathlariga, ya'ni ularni bir-biridan farqlash tamoyillariga e'tibor bermaydi, u asosan sodda gaplarning derivatsiyasi hamda segmentlarga

ajratishda prosodika tamoyillaridan foydalaniladi. Mazkur grammatika nutq, uning funksional vazifalari

hamda gapning paradigmatic qatorini, qo'shma gaplar strukturasi tahlil qilmaydi. Mazkur maktabning vakillaridan N.Xomskiy grammatikani uch, ya'ni sintaktik, semantik va fonologik komponentlarga ajratadi [1964, 26]. Sintaktik component asosan semantik component asosida gapni mantiqiy jihatdan ifodalanishini nazarda tutgan holda uni gapning “ichki” qurilmasidir deb ta'kidlaydi. Natijada, gapning tashqi va ichki qurilmalari kabi atamalar paydo bo'ldi. Natijada, transformatsiya tahlil metodi shakllandi va gapning tashqi qurilmasi transformatsiyaning turli usullari (nominalizatsiya, qo'shimcha qilish, interrogatsiya, tushurib qoldirish, eksplikatsiya, adyektivizatsiya) ishlatilishiga qaramasdan, gapning ichki qurilmasida ifodalangan ma'no to'liq saqlangan holda amalga oshirildi. Transformatsiyaning turli usullaridan foydalanish maqsadi asosan payt holi ifodalagan sintaksemalarning bir-biridan farqlovchi tomonlarini isbotlashdan iborat.

Aytish joizki, gapning tashqi va ichki qurilmalari tushunchasini A.M.Muxin ta'kidlaganidek: “Gapning tashqi qurilmasi deganda, gap tarkibida ishtirok etgan sintaktik birliklarni komponentlarga ajratib tahlil qilish bo'lsa, gapning ichki qurilmasi esa gap qurilmasidagi elementlarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilishdir” [81-82, 1999]. Demak, gapning tashqi qurilmasini tahlil qilishda, komponentlarga ajratib tahlil qilish deganda gap tarkibida ishtirok etgan sintaktik birliklarning o'zaro sintaktik aloqalarini aniqlab, ularning differensial sintaktik belgilarini hamda ularning morfologik xususiyatlarini (modellashtirish usuli yordamida) sintagmatik yo'nalishda aniqlashdan iboratdir. Gapning ichki qurilmasi deganda sintaksemalarga ajratib tahlil qilishdir, ya'ni gap tarkibida ishtirok etgan komponentlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini va ularning variantlarini paradigmatic yo'nalishda aniqlashdir.

Mazkur lisoniy tadqiqot metodlar asosida qator monografik ishlar O'zbekiston Respublikasida Usmonov U.U. 1983; Kubeynova, 2008; Muxtarov, 1986; Chen, 1979; Kiyamov, 1983; Egamberdiyev, 1993 va boshqalar, ingliz o'zbek, ingliz qoraqalpoq tillari Chariyev, 1976; Ashurov, 2007; Jolibekova, 2008; Qayumova, 2010; Usmonov F, 2012 va boshqalar qiyosiy funksional tahlil qilib keng qamrovli monografik ishlar yaratdi. Ushbu dissertatsiya ishimizda, yuqorida qayd etilgan tilshunoslarning ilmiy qarashlariga tayangan holda, ingliz va o'zbek tillarida temporallik ishtirok etgan gaplarni komponentlarga va sintaksemalarga ajratib, ularning deytik holatlarini qiyosiy-funksional tadqiq qilishdan iboratdir.

Deyksis xususiyatiga e'tibor qaratilganda, tilshunoslar deytik kategoriyalar haqida quyidagilarni e'tirof etadi: 1. Shaxs deyksisi, so'zlovchi o'zining real voqelikka bo'lgan munosabatini belgilaydi; 2. Lokal deyksisi,

so'zlovchi o'zi turgan makon bilan boshqasiga bo'lgan munosabati; 3. Temporal deysisi, so'zlovchi o'zining nutqiy muloqot davrini boshqa paytga bo'lgan munosabati [Raus, 1983, 231], unga V.V.Burlakova “modal deysisi”, “sotsial (ijtimoiy) deysisi” aniqlaydi [Burlakova, 1988, 85], Ch.Fillmor va R.Lakoflar emotsional deysisni aniqlaydi [Fillmore, 1974; Lacoff, 1974]

Komponentlarga ajratib tahlil qilish tilning leksik qatlamida qaralganda O.N.Seliverstvaning fikricha “...leksik birliklarning ma'nolarini, sinonimlarini, variantlarini lug'atda va kontekstda aniqlashdan iborat” [1975, 8-9]. Ammo payt holli sodda va payt ergash gaplarni sintaktik sathda qiyosiy-funksional tadqiq qilish maqsad qilib qo'yildi. Chunki, payt holini ifodalovchi sintaktik birliklar boshqa komponentlar bilan har xil sintaktik aloqalar yordamida bog'lanishi, turlicha differensial sintaktik-semantik belgilarni ifodalashi, har xil variantlarining mavjudligi kabilar ushbu mavzuni qiyosiy-funksional tadqiq etishga keng yo'l ochiladi.

Ma'lumki, hozirgi zamon tilshunosligining taraqqiy etishida, til materialini qiyosiy tahlil qilish bilan bog'liq bo'lgan muammolarga qiziqishning o'sishi aniq. Bunday holda tadqiqotning diqqat markazida qardosh va qardosh bo'lmagan tillar tizimini qiyosiy tahlil qilishda umumiy lisoniy tadqiq qilishmetodlar yotadi. Ushbu masalani A.V.Shirokovning ta'kidlashicha “... lingvistik tahlil metodikasi nazariy jihatdan shunday bo'lishi lozimki, u metodika aniq tillarning umumiy va quyi sistemasini yoki mikrosistemasini qiyoslashda

tillardagi umumiylikni va farqli tomonlarini asoslab berishga qodir bo'lishi kerak” [1981, 270]. Bu masalada O'.Q.Yusupov qiyosiy tilshunoslikning bo'limlarini aniq ko'rsatib, (qiyosiy-tarixiy, tipologiya, chog'ishtirish tilshunosligi va chog'ishtirma tipologiya) va ularning asosiy vazifalarini aniqlab berdi [2007, 10-14].

Aniqlangan sintaktik aloqalar bazasida sintaktik birliklarning differensial sintaktik belgilari aniqlanib, ularning morfologik ifodalanishi komponent modellarda ko'rgazmali ravishda tasvirlanadi. Eksperiment metodi asosan struktural sintaksis asosida sintagmatik yo'nalishda payt holini ifodalovchi sintaktik birliklarning sintaktik

munosabatlari hamda ularning komponent tarkibi, temporallikning mikromatnda deyktik holatlarini oydinlashtirishda ma’lum chegaradan chiqmagan holda tahlil qilinadi. Boshqacha qilib aytganda, temporal elementli gaplardagi yadro va tobe komponentlarni bir-biridan farqlashda keng imkoniyat yaratadi. Deyksisga uchragan temporal sintaktik birliklarning ham mikromatnda sintaktik o’rni aniqlanib, ularning bosh gapdagi o’rniga mos kelishi yoki mos kelmasliklarini atroflicha chegaralashda eksperiment metodining har xil usullaridan foydalanish mumkin.

Gapdagi vazifa esa payt holli gaplar tarkibida aniqlangan komponentlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini paradigmatic yo’nalishda, ya’ni oppozitsiya usuli yordamida aniqlanadi. Sintaksemalarga ajratib tahlil qilishda, avvalambor kategorial differensial sintaktik-semantik belgilar (substansiallik, protsessuallik va kvalifikativlik) aniqlanib, ular asosida gap tarkibida tutgasn o’rniga ko’ra nokategorial differensial sintaktik-semantikbelgilar aniqlanadi. Sintaksemalarni aniqlashda tahlil qilinayotgan gapdan tashqari, ya’ni ushbu gapdagi sintaksemi boshqa gapdagi bir xil sintaktik o’rinda kelgan elementlarning sintaksemalari bilan, ya’ni turli tizimli tillar misolida qiyoslanadi. Bunda eng muhimi gap tarkibidagi sintaktik birliklarni komponentlarga ajratishda ham sintaksemalarga ajratishda ham gap qurilmasida bir xil sintaktik o’rin va bir xil sintaktik aloqa asosida amalga oshiriladi. Shu o’rinda A.M.Muxinning fikricha: “Gap qurilmasini komponentlarga ajratib tahlil qilish, ya’ni sintaktik birliklarning sintaktik aloqalarini bir-biridan farqlab tahlil qilish struktural sintaksisning obykti hisoblanadi. Gapdagi sintaktik birliklarni paradigmatic yo’nalishida sintaksemalarga ajratib tahlil qilish funksional sintaksisning vazifasiga kiradi” [2007, 154].

Xulosa o’rnida shuni aytilish mumkinki, gap qurilmasidagi sintaktik birliklarni sintaksemalarga ajratib tahlil qilish, gapning komponentlarga ajratib tahlil qilishning davomi hisoblanib, aniqlangan sintaksemalarni ma’lum sintaktik aloqalar bazasida boshqa qandaysintaksemalar bilan bog’lanish imkoniyatlari aniqlansa, ularning differensial sintaktik belgilari asosida har bir komponentning gap tarkibidagi sintaktik o’rnini (yadro yoki yadro bo’lmagan) aniqlashga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Звегинцев В.А. Проблема значения в современном зарубежном языкознании // Новое в лингвистике. Вып 2. –Москва: 1968. –С. 9-16.
2. Hill A. A. Introduction to Linguistic Structures from sound to Sentence in English. –New York, 1958. -396 p.
3. Bushuy T.A., Safarov Sh.S. Tilqurilishi: tahlil metodlarivametodologiyasi. - Tashkent: Fan, 2007. -274 b
4. Буранов Дж. Б. Сравнительная типология английского и тюркских языков. Москва: Высшая школа, 1983. -268 с
5. Harris Z.S. String Analysis as Sentence Structure. –The Hague, 1964. -358 p.
6. Roderick A., Jacobs., Peter S. Rosenbaum., Paul M. Postal. English Transformational Grammar. –Massachusetts, London: 1968. -316 p.